

OMMAVIY OFERTA

Til darajasini belgilash uchun imtihon xizmatlarini taqdim etish bo'yicha ommaviy oferta

Atamalar va ta'riflar:

Ommaviy oferta - bu shartnoma tuzish taklifi. Shartnomaning o'zi ofertani (uning aktseptini) shartsiz qabul qilish orqali tuziladi.

Ofertaning Aktsepti – ofertaning 1.3. bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali uni butunlay va shartsiz qabul qilish. Oferta Aktsepti shartnomani kuchga kiritadi.

Imtihon -Til darajasini belgilash uchun xalqaro til bilish standardlariga javob beradigan sertifikat (ECL) olish uchun o'tkaziladigan imtihon.

Imtihon olish markazi – 02/10/2020 yilda berilgan №898088 sonli guvohnoma asosida faoliyat yurituvchi yuridik shaxs: **Brueder Grimm Sprachenschule MCHJ**

Nomzod – ushbu oferta shartlarini qabul qilgan, shuningdek **Imtihon olish markazi** tashkillashtirgan til darajasini belgilash uchun imtihon topshirayotgan jismoniy shaxs, xizmatlarning yakuniy iste'molchisi.

1. Umumiy holatlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga asosan ushbu hujjat “Brueder Grimm Sprachenschule MCHJ” (matn davomida – Imtihon olish markazi) ning har qanday jismoniy shaxsga (matn davomida – Nomzod) ushbu Ofertani unda keltirilgan shartlar asosida qabul qilishiga qaratilgan rasmiy ommaviy **taklifi (oferta)** hisoblanadi.

1.2. Ushbu oferta rasmiy hujjat hisoblanib, yuridik manzil, Mirzo Ulugbek tumani, TTZ-2, 65-30 uy manzilida ro'yxatdan o'tgan Imtihon olish markazida va uning rasmiy web-saytida (**bgau.uz**) e'lon qilingan.

1.3. Ushbu ofertani to'liq va shartsiz qabul qilish – bu ushbu ofertada ko'rsatilgan shartlarni bajarish uchun har qanday harakatlar, Imtihon olish markazining rasmiy web-sayti (**bgau.uz**) dan ro'yxatdan o'tish; Imtihon olish markaziga o'zining shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etish (to'liq ismi, tug'ilgan yili va joyi, telefon raqami,

elektron pochta manzili, passport nusxasi, yashash manzili va h.k.); **bgau.uz** web-saytidagi Nomzodning Imtihon qoidalari va ushbu oferta bilan tanishib chiqqanligi to`g`risidagi belgini tasdiqlashi; xizmatlar uchun to`lovni amalga oshirishi, shuningdek, nomzodning xizmatlardan foydalanish niyatini tasdiqlovchi boshqa harakatlar Ofertaning Aksepti hisoblanadi.

1.4. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369 va 370 – moddalariga muvofiq, agar quyida keltirilgan shartlar qabul qilingan va keltirilgan miqdordagi to`lov to`langan taqdirda, ushbu Ofertani qabul qilgan shaxs ushbu Ofertaning Tomoniga aylanadi, bundan keyin Nomzod deb yuritiladi (O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasi to`rtinchi bandiga muvofiq, Ofertani qabul qilish Ofertada belgilangan shartlar bo`yicha shartnoma tuzishga tengdir). Imtihon olish markazi va Nomzod, ushbu Ofertada birgalikda Tomonlar deb, alohida esa, Tomon deb yuritiladi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Nomzod, ushbu Ofertada ko`rsatilgan xizmat bo`yicha imtihon topshirish uchun ro`yhatdan o`tib, tegishli to`lovni amalga oshiradi, Imtihon olish markazi «**BRUEDER GRIMM SPRACHENSCHULE**» MCHJ esa til bilish darajasini belgilash uchun imtihon tashkil etish xizmatlarini (matn davomida «Xizmatlar» deb yuritiladi) ko`rsatish majburiyatini oladi.

2.2. Til bilish darajasini aniqlash bo`yicha olinadigan imtihon darajalari **Umumyevropa Tizimi (CEFR)** talablariga mos keladi. Til imtihonining quyidagi darajalari mavjud: **A2** (boshlang'ich), **B1**(o`rta), **B2**(yuqori-o`rta) va **C1**(ilg'or).

2.3. Imtihon olish markazida To`liq va To`liqsiz (yozma/og'zaki) imtihon topshirish imkoniyati mavjud. **To`liq Format 4** qismdan iborat: o`qib tushunish, yozma muloqot, tinglab tushunish va og'zaki muloqot. **To`liqsiz yozma format** 2 qismdan iborat: o`qib tushunish va yozma muloqot, **To`liqsiz og'zaki format** ham 2 qismdan iborat: tinglab tushunish va og'zaki muloqot.

2.4. Imtihon olish markazida bir yilda 6 marta davriy imtihonlar olinadi. Imtihon olinadigan oylar: **fevral, aprel, iyun, oktyabr, avgust va dekabr**. Imtihon kunlarini imtihon olish markazi rasmiy web-sayti yoki ijtimoiy tarmoqlarning rasmiy sahifalarida har yili e`lon qilinadi: eclexam.eu, bgau.uz.

2.5. Nomzod imtihon o`tkaziladigan yilda 14 yoshga to`lgan bo`lsa ariza topshirish uchun layoqatli hisoblanadi. Ro`yhatdan o`tish uchun onlayn ariza to`ldiriladi: **bgau.uz/ecl**

2.6. Ro`yxatdan o`tishda nomzod o`zining xorijga chiqish pasporti (Reisepass)ni taqdim etishi shart. Ism-Familiya ham xuddi shu pasportdagidek bexato kiritilishi lozim. Ma'lumotlar noto`g`ri kiritilgan holatlarda kelib chiqadigan moddiy zararlar nomzod tomonida undiriladi. Ro`yxatdan o`tish muddati imtihondan to`rt hafta oldin tugaydi.

2.7. Ro`yhatdan o`tish muhlati to`liq yakunlanib, imtihon jadvali shakllantirilgandan so`ng, har bir nomzodga uning imtihon jadvali va ID raqami (Kandidatnummer) ni o`z ichiga olgan avtomatik elektron xat yuboriladi. Nomzod ushbu xatni qog`oz shaklida o`zi bilan imtihonga olib kelishi shart.

2.8. Nomzodning ismi sharifi, manzili yoki shaxsiy ma'lumotlari o`zgargan taqdirda, nomzod Imtihon olish markaziga yozma ravishda (e-mail orqali) imkon qadar tezda xabar berishi lozim. Bu haqida vaqtida xabar berilmagan taqdirda til bilish darajasini belgilovchi sertifikat ma'lumotlari to`g`riligiga Imtihon olish markazi javobgar bo`lmaydi va sertifikatni qayta chop etish harajatlari Nomzoddan undiriladi.

2.9.1. Imtihon to`lovi to`langandan so`ng, nomzodning taqdim qilgan ma'lumotlari to`g`ri ekanligi tekshiriladi va imtihon uchun yaratilgan maxsus dasturiy ta`minot manbasiga kiritiladi. Nomzodning ma'lumotlari dasturiy ta`minot manbasiga kiritilgandan so`ng to`lov hisoboti avtomatik tarzda shakllantiriladi hamda nomzod uchun joy band qilinadi. Registratsiya yopilgandan so`ng ro`yxatga olingan nomzod imtihonda qatnashishdan voz kechgan holatda nomzod tomonidan band qilingan joyga boshqa nomzodni ro`yxatga olishning imkoni mavjud emas.

2.9.2 Imtihon materiallari har bir nomzodning ism-sharifi ko`rsatilgan, shtrix-kod bilan belgilangan maxsus qog`ozlarga chop etiladi. Ro`yxatdan o`tish muddati yakunlangan zahoti (registratsiya yopilgandan so`ng) nomzodlarning imtihon qog`ozlari maxsus muhr bilan muhrlanib pochta orqali filiallarga jo`natiladi. Registratsiya muddati tugagandan so`ng ya`ni nomzodning ma'lumotlari dasturiy ta`minot manbasiga kiritilgandan so`ng, dasturiy ta`minotga ham, chop etilgan qog`ozlarga ham hech qanday o`zgartirish kiritish mumkin bo`lmaydi.

2.9.3 Yuqorida keltirilgan bandedagi (2.9.1 va 2.9.2) sabablarga ko`ra registratsiya to`liq yopilgunga qadar yoki nomzodning ma'lumotlari maxsus dasturiy ta`minotga kiritib bo`lingunga qadar nomzod imtihonda qatnashmaslik uchun yozma ariza bilan murojaat qilsa, nomzod tomonidan amalga oshirilgan to`lovdan adminstrativ ishlar uchun 20% ushlab qolinib 80% qismi qaytariladi. Nomzodning ma'lumotlari imtihon maxsus dasturiy ta`minotiga kiritilgandan so`ng, shu imtihon davri uchun yangi nomzod qabul qilinishi imkonsiz bo`lgan vaqtda, ya`ni registratsiya to`liq yopilgandan so`ng nomzod imtihonda

qatnashishdan bosh tortsa imtihon uchun to`langan **to`lov qaytarilmaydi**.

2.10. Nomzod qaysidir sababga ko`ra imtihonda qatnasha olmasa va bu haqida imtihon markazini yozma ogohlantirsa, 3 ish kuni mobaynida komissiya tuzilib, nomzodning vaziyati o`rganib chiqiladi. Komissiya ma`qul deb topsa nomzod imtihonni keyingi imtihon davriga kechiktirish huquqiga ega bo`ladi. Kechiktirish uchun maxsus ariza blankasi to`ldirilishi va qo`shimcha to`lov to`lanishi lozim bo`ladi. Barcha holatlarda to`lovni tasdiqlovchi hujjat arizaga ilova qilinishi kerak. Ariza faqat to`lovni tasdiqlovchi hujjat bilan birga haqiqiy hisoblanadi.

2.11. Nomzod imtihonni avvaldan kechiktirish uchun ariza yozmagan holatda imtihonga kelmasa imtihon uchun to`langan to`lov o`z kuchini yo`qotadi. Keyingi imtihonga yana yangi ariza berish va qaytadan to`lov qilish orqali kirishi mumkin bo`ladi.

3. Imtihon jarayoni

3.1. Imtihonning yozma qismlari (o`qib tushunish, yozish va tinglab tushunish) bir vaqtda Imtihon olish markazi tomonidan o`rnatilgan soatda boshlanadi. Kompleks imtihonlar uchun imtihonlar tanaffuslarsiz o`qib tushunish va yozma muloqot qismlaridan boshlanadi hamda tinglab tushunish bilan yakunlanadi. Og'zaki imtihon uchun suhbat yozma qismlardan keyin yoki avval, Imtihon olish markazi tomonidan belgilangan kunda o`tkaziladi.

3.2. Og'zaki imtihon uchun suhbat ikki imtihon oluvchi mutahassis tomonidan o`tkaziladi. Nomzodlar ham suhbatni ikki kishi bo`lib topshiradilar. Nomzodlar soni toq bo`lgan taqdirda, imtihon tashkilotchilari uch nomzoddan iborat guruh tuzadilar. Ko`zda tutilmagan ayrim holatlardagina nomzodlar yolg'iz imtihon topshirishlari mumkin.

3.3. Nomzodlar og'zaki imtihon uchun o`tkaziladigan suhbatga o`zlariga sherik tanlash huquqiga ega. Buning uchun ro`yhatdan o`tish paytida sheriklarining ismi sharifini ma`lum qilishlari lozim bo`ladi. Sherigining ismi sharifi kiritilmagan holatlarda og'zaki imtihon uchun sherik tasodifiy tarzda qur`a tashlash orqali tayinlanadi. Og'zaki imtihon paytida gapirishdan avval tayyorgarlik ko`rish uchun alohida vaqt berilmaydi. Og`zaki suhbat imtihon sifatini nazorat qilish uchun yozib olinadi. Audio yozuvlar mahfiy hisoblanib, faqatgina Imtihon olish markazi va Chet Tillari Sertifikatlarini Akkreditatsiya qilish markazi tomonidan imtihon sifatini nazorat qilish uchungina foydalaniladi.

3.4. Nomzodlar faqatgina yozma imtihon uchun ya`ni insho yozish paytidagina bir tilli yoki ikki tilli bosma nashrlardan chiqqan lug`atlardan foydalanishlariga ruhsat beriladi. Tematik va suratli lug`atlardan foydalanish mumkin emas. Bosma lug`at ichiga qalam

bilan yoki ruchka bilan ortiqcha yozuvlar yozilgan lug'at kitobdan foydalanish mumkin emas. Qo'lda yoki kompyuterda yozib olingan qo'llanmalar, so'zlar ro'yhati va boshqa yordamchi materiallardan foydalanish ta'qiqlanadi. Shuningdek, o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki suhbat jarayonida esa har qanday yordamchi materiallardan foydalanish ta'qiqlanadi, shu jumladan lug'atlar ham.

3.5. Xatolarni tuzatishlar, eslatmalar, qoramalar faqatgina imtihon varaqasiga yozilishi mumkin. Shtrixlardan, o'chiriladigan ruchkalardan foydalanish mumkin emas. Nomzodlar xato yozilgan so'zlarning ustiga ruchkada chizib o'chirishlari mumkin bo'ladi. Xuddi shu usulda tuzatishlar kiritishlari ham mumkin. O'qib tushunish va tinglab tushunish bo'limlarida bir necha so'z orqali qisqa javob berish lozim bo'ladi. To'liq jumla bilan javob berilmaydi. Javoblar savolga qarab qisqa va lo'nda berilishi lozim, ortiqcha keraksiz ma'lumotlarni kiritish mumkin emas. Agar javobda to'g'ri javobning bir qismi hisoblanmagan tafsilotlar mavjud bo'lsa ushbu javob noto'g'ri deb hisoblanadi. Qavs ichiga olingan va ustiga chizilgan javoblar nomzodning ohirgi javobi deb hisoblanmaydi va e'tiborga olinmaydi. Javob faqatgina bitta harfdan iborat bo'lgan joylarda xatolarga tuzatishlar kiritish noto'g'ri yozilgan harfning ustiga chiziladi va yakuniy javobni ustiga chizilgan harf bilan bir katakka joylanadi.

3.6. Baholash uchun mo'ljallangan kataklar nomzodlar tomonidan bo'sh qoldirilishi lozim. Barcha nomzodlar imtihonga o'z shaxslarini tasdiqlovchi hujjat-horijga chiqish pasporti (Reisepass) bilan kelishlari lozim. Shaxsni tasdiqlovchi hujjat bo'lmagan taqdirda Imtihon olish markazi ularni imtihonga qo'ymaslik huquqiga ega. Nomzodlar imtihon zaliga quyidagi narsalarni olib kirishlari mumkin emas: **mobil telefonlar, sumkalar, kitoblar, daftarlar, video-audio yozish-uzatish moslamalari yoki boshqa qo'shimcha vositalar, materiallar.** Imtihon jarayonida barcha qoramalar savollar varog'idagi maxsus joyga yozilishi kerak. Lug'atlardan faqat yozma imtihon (Schreiben) qismida foydalanish mumkin xolos. Nomzodning ohirgi javoblari javoblar varog'iga ko'k siyohda yozilishi lozim. Yozma bo'limlar uchun belgilangan vaqt (o'qib tushunish, yozma ish, tinglab tushunish) tugamasdan turib, imtihon materiallari barchasi qaytarilganligiga nazoratchi tomonidan ishonch hosil qilinmasdan turib nomzodlarga imtihon zalini tark etish mumkin emas.

3.7. Imtihonga kech kelish: Agar nomzod o'qib tushunish va tinglab tushunish bo'limlarida ko'rsatmalar berilayotgan vaqtda kelsa imtihonga kiritiladi, biroq unga qo'shimcha vaqt qo'shib berilmaydi. Imtihon jarayoni boshlangandan keyin kelsa imtihonga qo'yilmaydi.

3.8. Aldov va g'irromlik: Boshqa birovning nomidan imtihon topshirish uchun yollangan nomzodlarni aniqlash uchun nomzodlarning shaxslari qat'iy tekshiriladi. Firibgarlik holatlari aniqlanganda (masalan, yollanma imtihon topshiruvchi) zudlik bilan dalolatnoma tuziladi. Yollangan nomzod ham, uni yollagan nomzod ham imtihondan chetlatiladi. G'irromlik ustida qo'lga tushgan nomzod (birovning testidan ko'chirish, ruxsat etilmagan vositalardan foydalanish va h.k.) imtihondan chetlatiladi va kelgusida imtihon topshirish imkoniyatidan ham mahrum etiladi. G'irromlik qilinganlik holati test javoblarini tekshirilayotgan paytda aniqlansa, (ya'ni nomzod internetdan, yoki boshqa manbalardan ko'chirgani aniqlansa) bu ham imtihon g'irromligi deb hisoblanib, aynan shu qismda beriladigan baho 0 ga teng deb belgilanadi. Nomzodlar imtihon vaqtida lug'at yoki har qanday ma'lumot, materiallarni bir-birlariga uzatishlari taqiqlanadi. Har qanday holatda ham nomzodlarning bir-biridan yoki boshqa birovdan nusxa ko'chirishi yoki bir-biriga yordam berishi ta'qiqlanadi. Agar nomzod umumiy qoida buzarliliklar holatlarini sodir etsa, boshqa nomzodlarga havf solsa, yoki imtihonda boshqalarga halaqit berish holatlari sodir etilsa, nazoratchi ko'rsatmalariga amal qilmaslik, yoki nazoratchiga nisbatan hurmatsizlik qilish yoki haqorat qilish holatlari yuz bersa, nazoratchi qoidani buzgan nomzodga dalolatnoma tuzib, imtihondan chetlatish huquqiga ega.

3.9. Natijalarni baholash: Har bir bo'lim uchun ikki mustaqil baholovchi nomzodlarning natijalarini baholaydi. Har bir bo'lim uchun maksimal 25 ball to'plash mumkin. O'qib tushunish va tinglab tushunish bo'limlarning har birida 20 tadan savol mavjud bo'lib, har bir javobga maksimal 25 ball beriladi.

Yozma va og'zaki ishlarni baholash uchun beshta mezondan iborat analitik baholash shkalalari qo'llaniladi. Nomzod har bir mezon uchun maksimal 5 ball olishi mumkin. Yakuniy baholashda ikki baholovchi qo'ygan ballning o'rtacha hisoblanadi.

Og'zaki imtihon uchun suhbatda ham ikki baholovchi nomzod nutqini alohida-alohida baholaydi va ularning baholari imtihondan so'ng jamlanib yakuniy baho qo'yiladi.

3.10. Natijalarni e'lon qilish: Imtihon olish markazi natijalarni yozma imtihon topshirilgan kundan boshlab 30 kun ichida e'lon qiladi.

Nomzod To'liqsiz og'zaki formatga Imtihon topshirilganda tinglab tushinishda ham, gapirishda ham umumiy ballning kamida 40 foizini to'plagan bo'lishi, bundan tashqari umumiy ballari 60 foiz yoki undan yuqori bo'lishi kerak.

To'liqsiz yozma formatga imtihon topshirilganda o'qib tushunish va yozma ish bo'limida umumiy ballning kamida 40 foizini to'plagan bo'lishi, bundan tashqari umumiy ballari 60 foiz yoki undan yuqori bo'lishi kerak.

Agar nomzod Kompleks formatga imtihon topshirgan bo`lsa va imtihonning har bir bo`limida (o`qib tushunish, yozma ish, tinglab tushunish va og'zaki suhbat) kamida 40% natijaga erishgan bo`lsa va imtihonning to`rt bo`limining o`rtacha ko`rsatkichi kamida 60% bo`lsa, imtihondan muvaffaqiyatli o`tganligini tasdiqlovchi sertifikat oladi. Shu bilan birga, agar nomzod faqat To`liqsiz yozma yoki og'zaki formatlarda imtihondan muvaffaqiyatli o`tgan bo`lsa, u To`liqsiz imtihondan o`tganligini tasdiqlovchi sertifikat oladi.

Sertifikatlar imtihon olish markazi tomonidan imtihon natijalarini e`lon qilingan kundan boshlab 30 kun ichida yetkaziladi.

Natijalarni qayta ko`rib chiqish. Nomzodlar natijalar e'lon qilingandan keyin

10 ish kuni ichida qayta ko`rib chiqishni talab qilishlari mumkin. Nomzodlar qayta ko`rib chiqish (tekin) / qayta baholash (pullik) uchun baholashda yo`l qo`yilgan xatolik va qoida buzilishlari yuzasidan shikoyat qilishlari va yozma ariza berishlari lozim bo`ladi.

Baholangan testlar, og'zaki muloqot imtihonining audio materiallari, barcha imtihonlarning video kuzatuv yozuvlari Imtihon markazi arxivida uch yil davomida saqlanadi.

Imtihon xizmatlari Imtihon olish markazining web-saytida e`lon qilingan amaldagi narxlar ro`yxatiga muvofiq amalga oshiriladi, xizmatlar uchun to`lovni ushbu ommaviy taklif shartlariga muvofiq to`laydi.

4. Tomonlarning huquqlari va vazifalari.

4.1. Imtihon olish markazining huquq va vazifalari.

4.1.1. Imtihon olish markazi ushbu ommaviy taklifning 2.1 bandida ko`zda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va ularning bajarilishini ta'minlash majburiyatini oladi.

4.1.2. Nomzod ushbu ofertaning amal qilish muddati davomida ushbu oferta qonunchilik talablarini buzgan bo`lsa, imtihon olish markazi nomzodni imtihondan chetlashtirish huquqiga ega.

4.1.3. Imtihon olish markazi agar nomzod imtihon paytida nazoratchilarni yoki boshqa nomzodlarni og'zaki yoki yozma ravishda haqorat qilsa yoki ularga nisbatan hurmatsizlik qilsa dalolatnoma tuzilib imtihondan chetlashtirish huquqiga ega.

4.2. Nomzodning huquq va vazifalari

4.2.1. Nomzod to`lov qilguniga qadar ushbu Ofertaning mazmuni va shartlari bilan, xizmatlarning narxi bilan tanishib chiqishi shart.

4.2.2. Nomzod tomonidan to`lovning amalga oshirilishi, bu uning ushbu Ofertani

tanishib chiqib qabul qilganligini bildiradi. Agar xizmatdan foydalanuvchi o`n to`rt yoshdan yuqori va o`n sakkiz yoshdan kichik bo`lsa, nomzod tomonidan to`lanadigan to`lov ota-ona (farzand asrab oluvchi, vasiy, voyaga etmaganlarning qonuniy vakili bo`lgan boshqa jismoniy shaxs) tomonidan amalga oshiriladi va bu nomzodning va nomzod vakilining haqiqiy Ofertani o`qiganligi va ushbu shartlarini qabul qilganligini bildiradi.

4.2.3 Nomzod ushbu Ommaviy Ofertaning 2.1 bandida ko`rsatilgan xizmatlar uchun to`lovni o`z vaqtida to`lash majburiyatini oladi.

4.2.4. Nomzod imtihon materiallarini (qog'oz shaklida, elektron shaklda yoki boshqa har qanday shaklda) tijorat yoki notijorat maqsadlarda tarqatmaslik (nusxalamaslik, nashr etmaslik, Internet-resurslarda joylashtirmaslik, uchinchi shaxslarga o`tkazmaslik), olingan materiallar asosida tijorat mahsulotlarini yaratmaslik majburiyatini oladi. Imtihon materiallari qat'iy mualliflik huquqi ostida himoyalangan.

4.2.5. Nomzod «Imtihonqoidalari»ga amal qilishi shart (Ilova№1).

4.2.6. Nomzod Imtihon olish markazining birinchi talabiga binoan markazning mol- mulkiga yetkazilgan zararini qoplashni o`z zimmasiga oladi.

4.2.7. Nomzod Imtihon olish markazi hududida baqirish, baland ovozda musiqa tinglash, video yoki filmlarni ko`rishi, shovqin solishi, chekishi, spirtli ichimliklarni ichishi ta`qiqlanadi.

4.2.8. Nomzod imtihon jarayoni bilan bog'liq masalalar bo`yicha nazoratchiga savol bilan murojaat qilish huquqiga ega.

4.2.9. Nomzod baholash mezonlari to`g'risida to`liq va ishonchli ma'lumotlarni olish huquqiga ega.

4.2.10. Nomzod ro`yxatdan o`tishda taqdim etgan ma'lumotlarning to`g'riligi uchun javobgardir.

4.2.11. Nomzod ushbu ommaviy Ofertaning barcha shartlari unga tushunarli ekanligi va uni shartsiz qabul qilishini tegishli xizmat uchun amalga oshirgan to`lovi orqali tasdiqlaydi.

4.2.12. Ushbu Ommaviy Oferta shartlarini bajarish paytida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan barcha kelishmovchiliklar va tushunmovchiliklar Tomonlar o`rtasidagi muzokaralar yo`li bilan hal etiladi. Agar ular muzokaralar yo`li bilan bartaraf etilmasa, ular O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq xal qilinadi.

5. Xizmat narxi va hisob-kitob qilish tartibi

5.1. Xizmatlar narxi Imtixon olish markazining rasmiy veb-sayti bgau.uz/ecl sahifasida O'zbekiston Respublikasi so'mida, QQSsiz ko'rsatib o'tilgan.

5.2 Ushbu Oferta bo'yicha to'lov nomzod tomonidan ro'yxatdan o'tish yakunlanganidan so'ng to'g'ridan to'g'ri bgau.uz rasmiy saytida bank kartasi orqali amalga oshiriladi.

6. Imtihon olish markazi quyidagi hollarda nomzod oldida javobgar sanalmaydi

- 6.1. Nomzod imtihonga o`z vaqtida kelmasa;
- 6.2. Agar majburiyatlarni bajarish mumkin emasligi Imtihon olish markazi aybi bilan sodir bo`lmagan bo`lsa; Fors-major holatlarida;
- 6.3. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

7. Fors-major

- 7.1. Tomonlar ushbu Oferta shartlari bo`yicha majburiyatlarni qisman yoki to`liq bajarmaganliklari uchun quyidagi holatda javobgarlikdan ozod qilinadi: fors-major holatlari, yong'inlar, zilzilalar, harbiy harakatlar va boshqalar ushbu Shartnomani amalga oshirishga bevosita ta'sir ko`rsatgan bo`lsa.
- 7.2. Ushbu oferta shartlari yuzasidan majburiyatlarni bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan tomon yuqoridagi holatlarning paydo bo`lishi va bekor qilinishi to`g`risida zudlik bilan yozma ravishda xabar berishga majburdir.

8. Rekvizitlar

«BRUEDERGRIMMSPRACHENSCHULEMCHJ»-02.10.2020yilda, №898088-sonli Raqam bilan ro`yhatga olingan Guvohnoma asosida faoliyat yurituvchi yuridik shaxs.
Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulugbek tumani, TTZ-2, 65-30 uy;
H/r: 20208000605288105001;
ChEKI«Hamkorbank» ATB, Poytaxt BXO;
MFO: 00083;
STIR: 307785459;
OKED: 85590;
Tel: +998900469899
Direktor: VaxobovaM.A.

Imtihon qoidalari

I. Umumiy qoidalar:

Nomzod tomonidan imtihon to'lovi amalga oshirilganligi, bu uning ushbu Oferta bilan tanishib chiqib uni shartsiz qabul qilganligini bildiradi. Agar xizmatdan foydalanuvchi o'n to'rt yoshdan katta va o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lsa, uning nomidan ota-onasi (farzand asrab oluvchi, vasiy, voyaga yetmaganning qonuniy vakili bo'lgan boshqa jismoniy shaxs) to'lovni amalga oshiradi va bu orqali oferta shartlarini qabul qilgan hisoblanadi.

II. Imtihonda o'zini tutish:

1. Nomzod imtihonga horijga chiqish pasporti (Reisepass) va uning nusxasi, e-mailiga kelgan taklifnoma, hamda qora yoki ko'k rangda yozadigan 2 dona ruchka bilan, o'z vaqtida kelishi kerak.
2. Nomzodning alkogol, giyohvandlik yoki zaharli intoksikatsiya holatida imtihonga qatnashishi ta'qiqlanadi.
3. Imtihon davomida nomzod o'z diqqatini va boshqa nomzodlarni diqqatini chalg'ituvchi xatti-harakatlar qilishi ta'qiqlanadi.
4. Nomzod imtihon materiallarini har qanday ko'rinishda o'ziga saqlab qolishi v atarqatishi qat'iyman man e'tiladi. Imtihon materiallari mualliflik huquqi asosida himoya qilinadi. Qoida buzilgan holatlarda imtihon markazi nomzodni sudga berishga haqli.
5. Nomzod imtihon olish va tashkillashtirish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarga, nazoratchilar va Prueferlarga yoki boshqa nomzodlarga nisbatan har qanday holatda hurmatsizlik yoki qo'pollik qilsa, yozma yoki og'zaki ravishda haqorat qilsa, dalolatnoma tuzilib qayta imtihon topshirish huquqidan mahrum qilinib imtihondan chetlatiladi.
6. Nomzod imtihon paytida g'irromlik qilishga urinsa, g'irromlik ustida qo'lga tushsa, qayta imtihon topshirish huquqidan mahrum qilinib imtihondan chetlatiladi.